

QIPCHOQ LAHJASIDA QAVM-QARINDOSHLIK ATAMALARINING QO‘LLANISHI

Ravshanova Tursuntosh
TerDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali qipchoq lahjasining o‘ziga xos xususiyatlari, lug‘atlardagi izohlari haqida ma‘lumot beriladi. Hamda qipchoq lahjasida qavm-qarindoshlar atamalarining qo‘llanishi va o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Lahzalar, qipchoq lahjasi, qadimiy lug‘atlar, arxaik so‘zlar, qarindoshlik atamaları

Dunyodagi ko‘p tillar va ularning lahjalarining munosabatini daraxt va buloqlarga mengzash mumkin bo‘lsa, o‘zbek tili va uning lahjalarini o‘rtasidagi munosabatni tizma tog'larga o‘xshatish mumkin.

O‘zbek tili turli tadrijiy lahjalarning birikuvi natijasida paydo bo‘lgandir. Dunyo tillari orasida ko‘p tilliligi bilan ajralib turuvchi o‘zbek tili hamda uning shevalari o‘rasidagi munosabatlar haqida turkiy tillar grammatikasining bilimdoni professor Polivanov o‘z vaqtida shunday yozgan edi:

"O‘zbek tili yagona sistemaning, hech qachon amalda bo‘lmagan o‘zbek tilining dialektalogik parchalanishi yo‘li bilan emas, balki til sistemalarining birlashuvi yo‘li bilan paydo bo‘lgan". Darhaqiqat, shevashunoslarimizning ko‘p yillik tadqiqotlari o‘zbek umumxalq tili uch mustaqil lahjaning birikuvidan tashkil topganini tasdiqlaydi:

1. Qarluq-chigil yoki o‘rta o‘zbek lahjasi
2. Qipchoq yoki sof o‘zbek lahjasi
3. O‘g‘uz lahjasi

XIII-XIV asrlarda o‘zbek tili taraqqiyotiga qipchoq lahjasining katta ta'siri borligi maxsus lug‘atlarda ham o‘z aksini topgan. Ma‘nosi o‘sha qadimiy lug‘atlarda ham izohlangan қыңыр-егри , йяк- чакак, тамақсов-ochko‘z, саңров-кар kabi juda ko‘plab so‘zlarning hozirgacha qipchoq lahjasida keng qo‘llanishi ham bu lahjaning juda qadimiy, yashovchi va ifoda imkoniyati keng ekanligini ko‘rsatadi.

Qipchoq lahjasidagi so‘zlarni leksik-semantik jihatdan ko‘p ma‘nolilik, ma‘nodoshlik, shakldoshlik, zid ma‘nolilik, so‘z ma‘nolarining o‘zgarishi, ko‘chma ma‘noligi va boshqa jihatlari nuqtai nazaridan tahlil qilish mumkin. Qipchoq lahjasi so‘zlarida ko‘p ma‘nolilik inson tana a'zolarining, kishi yoki narsalarning boshqa biron belgisiga nisbat berish natijasida yuzaga keladi. Chunonchi, баш-odamning boshi, тавдың башы- tog'ning boshi, бувдайдың башы- bug'doyning boshi, аулдың башы- qishloqning boshi birikmalaridagi ko‘chma ma‘no "bosh" so'ziga nisbat berish natijasida yuzaga kelgan. "Bosh" so‘zning ko‘chma ma‘nosi adabiy tildagiga nisbatan

qipchoq lahjasida ko'proq. Qipchoq lahjasida arxaik shakllarga kirib qolgan so'zlar ham anchagina: шырдан- somonning loy shuvab bekitilgan uyumi, ғодыра- avvalgi yildan qolgan donning har-har yerda chiqqan shakli, бэлбэв- qora uyning atrofini aylantirib kigizning ustidan bog'laydigan ip, нэпрэмэч- ko'pra-yostiqli o'rab qo'yadigan gilam, qop kabilar.

Qipchoq lahjasi so'zligining asosini asl turkiy, asl o'zbekcha so'zlar tashkil etadi. Lahjadagi so'zlar sohalar bo'yicha adabiy til va boshqa lahjalar bilan umumiylik kasb etsa-da, ba'zan ularning o'ziga xos jihatlari ham ko'zga tashlanib qoladi. Qipchoq lahjasi qavm-qarindoshlik atamalarida ham adabiy til bilan umumiylik va ba'zi o'ziga xosliklar mavjud. Masalan lahjadagi бөлә(бўла) so'zi adabiy tilda opa-singildan tug'ilgan bolalar, xolavachcha muqobiliga ega. Adabiy tilda qo'llaniladigan yangi so'zi qipchoq lahjasida чэчә, йэнгә tarzida qo'llangan. Qipchoq lahjasida kenja farzand чаначқакты, добрақакты tarzida ifodalanadigan bo'lsa, keksa odamning kenja bolasiga nisbatan esa ақтық atamasi qo'llangan. Adabiy tildadi ona апа tarzida ishlatilgan bo'lsa, бава atamasi bugungi kunda otaning akasi, amaki ma'nolarida ishlatiladi. Qipchoq lahjasida әмәки deyilganda aka-ukalarning bolalari tushunilsa, жийән deganda esa opa-singil bolalarining aka-ukaga qarindoshligini anglash mumkin. Bundan tashqari yosh kelinchak yangi xonadonga kelguniga qadar tug'ilgan yosh bolalarni chaqirish uchun бала atamsi, qizlarni chaqirish uchun esa қыз atamasi qo'llanilgan ekan. Qipchoq lahjasida өкүлата atamasi nikohda yoshlarga vakillik qilgan odamga nisbatan ishlatilgan. Lahja tilida bir onani emgan bolalarga nisbatan әмиқдаш atamasi, onaning orqasidan yangi uyga ergashib kelgan bolaga esa ийәрчән atamasi qo'llangan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, qipchoq lahjasi qo'lliladigan so'zlarning ko'pchiligi adabiy tildagi so'zliklarga mos keladi. Lekin ba'zi o'rinlarda ularning bir-biridan tubdan farq qiladigan holatlariga ham guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu kabi farqlarni aniqlash uchun qipchoq lahjasi va adabiy tilda sohalarga oid so'zlarning qo'llanishi tadqiqotlarni amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolova M. A. SHORT NOTES PHYTONYMS BAYSUN IN DIALECTS LEXIKOLOGY //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – T. 2. – №. 3. – С. 310-317.
2. Abdulhakimovna K. M. Transcription in the corpus of the uzbek national boysun dialect (on the example of Baysun district" j" dialects) //Journal of Critical Reviews. – 2020. – T. 7. – №. 5. – С. 844-847.
3. Холова М. А. BOYSUN SHEVASI ONLAYN MA'LUMOTLAR BAZASI (QIDIRISH VA SARALASH IMKONIYATLARI ASOSIDA)

//МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 1-1.

4. Холова М. А. ШЕВАЛАР КОРПУСНИНГ ЖАНРИЙ ТЕГЛАШНИНГ ЛИНГВИСТИК АСОСЛАРИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 4.

5. Холова М. А. О'ЗБЕК SHEVALARINING STANDART TILGA MUNOSABATI VA TIL TIZIMIDAGI O'RNI (BOYSUN TUMANI "J" LOVCHI SHEVALAR MISOLIDA) //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2020. – Т. 3. – №. 5.

6. Холова М. А. BOYSUN SHEVASI KORPUSI: IBTIDO (BOYSUN TUMANI "J" LOVCHI SHEVALAR MISOLIDA) //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2020. – №. SI-2№ 5.

7. Abdulhakimovna X. M. Baysun dialekt corpus: Genesis (Baysun district is in the case of "J" dialect) //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 2. – С. 224-228.

8. Xolova M. A. SHORT NOTES PHYTONYMS BAYSUN IN DIALECTS LEXIKOLOGY //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 3. – С. 310-317.

9. Холова М. А. Boysun shevasiga xos so'zlarning leksik-semantik genezisi //Молодой ученый. – 2019. – №. 22. – С. 696-699.

10. Abdulhakimovna X. M. Transcription in the Uzbek National Boysun Dialect Corps (Boysun District with the Example of "J" Dialect) //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 3. – С. 105-109.

11. Abdulhakimovna K. M. Some Sketches on Food Semantics in Boysun Dialectism //International Journal on Integrated Education. – Т. 2. – №. 6. – С. 149-152.

12. Xudoyberdiyeva G. A. Lexical synonym level in Uzbek //ISJ Theoretical & Applied , Science03 (83). – 2020. – С. 61-66.

13. Xidirova I., Xidirova N. Gender Characteristics of Family Speech (On the Example of the Uzbek Family) //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 196-199.

14. Raxmonjonova G., Xidirova I. CHORTOQ SO 'ZINING KELIB CHIQISHIGA OID ILMIIY QARASHLAR //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 188-189.